“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/26.05.2022.T.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

ABDURAZZOQOV JAVOHIR RUSTAMOVICH

NOCHIZIQLI KOMPONENTLARNI SHAKLLANTIRISH VA TASNIFLASH ALGORITMLARI

05.01.03 – “Informatikaning nazariy asoslari”

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent-2024

UDK: 004.853:004.421.5/.6

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on technical sciences

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/26.05.2022.T.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

ABDURAZZOQOV JAVOHIR RUSTAMOVICH

NOCHIZIQLI KOMPONENTLARNI SHAKLLANTIRISH VA TASNIFLASH ALGORITMLARI

05.01.03 – “Informatikaning nazariy asoslari”

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent-2024

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T4410 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tiiame.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abduraximov Baxtiyor Fayziyevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Mirzayev Nomaz** texnika fanlari doktori, professor
	Xodiyev Shuxrat Ilxamovich texnika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi DSc.03/26.05.2022.T.10.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «22» noyabr soat 1400 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko‘chasi 39, Tel.: (+99871) 237-46-68; faks: (+99871) 237-19-36; e-mail: admin@tiiame.uz).

Dissertatsiya bilan “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (342-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko‘chasi, 39 uy. Tel.: (+99871) 237-19-45).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “12” 11 da tarqatildi.
(2024-yil “11” 11 dagi №7 raqamli reestr bayonnomasi.)

N.S. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

D.Q. Bekmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

S.S. Radjabov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda axborot texnologiyalarining rivojlanishi va keng ko‘lamli integratsiyasi ortidan, raqamli ma’lumotlar hajmining kattalashuvi hamda ularning xavfsizligi masalalari tobora murakkablashmoqda. Inson ishlov bera olmaydigan katta hajmdagi ma’lumotlarning paydo bo‘lishi ularni saqlash, ishlov berish, uzatish va xavfsizligida mashinali o‘qitish usullarini qo‘llash zaruratini keltirib chiqardi. Xususan, blokli simmetrik kalitli shifrlash algoritmlari, axborot xavfsizligining asosiy tayanchi bo‘lib, ularning samaradorligi va ishonchliligi kiber tahdidlarga qarshi muhim himoyani ta’minlaydi. Zamonaviy kiber hujumlarning murakkabligi va o‘zgaruvchanligi ushbu algoritmlarning doimiy takomillashuvi bilan bir qatorda ularda yangi innovatsion usullarni qo‘llashni talab qiladi. Blokli shifrlash algoritmlarini takomillashtirish masalalarini yechishda mashinali o‘qitish va evolyutsion algoritmlarni qo‘llash muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masalalar bo‘yicha AQSH, Hindiston, Xitoy, Rossiya, Germaniya, Yaponiya va boshqa mamlakat olimlari mashinali o‘qitish va genetik algoritmlarni blokli shifrlashda qo‘llash orqali, uning nazariy va amaliy yechimlarini ishlab chiqishga e’tibor qaratmoqda.

Jahonda simmetrik kalitli algoritmlarning samaradorligini oshirish va yangi xavfsizlik tahdidlariga moslashuvchanlikni ta’minlash zaruratini hisobga olgan holda, sohaga sun’iy intellekt va genetik algoritmlarni qo‘llash bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar, simmetrik shifrlash jarayonlarini optimallashtirish, nochiziqligi yuqori komponentlarni shakllantirish, kalitlarni boshqarish va turli hujumlarga bardoshlilikni oshirish orqali axborot xavfsizligini talabini yanada yaxshilashni maqsad qiladi. Shu bilan birga zamonaviy shifrlash algoritmlarni ishlab chiqish bilan bir qatorda ularning ishonchliligini baholash va zaifliklarini aniqlash muhimdir. Bu sohalarni integratsiyalashda shifrlash algoritmlarining kalit bitlarini to‘g‘ri tasniflash uchun mos o‘quv tanlanmani shakllantirish, mashinali o‘qitish usuli va uning giperparametrlarini optimallashtirish muhim ahamiyatga ega. Shifrlash algoritmlari bardoshligini oshirish uchun ichki nochiziqli komponentlarni shakllantirishda foydalanilayotgan funksiyalarni to‘g‘ri tanlash, qiymatlarning yaroqliligini baholash va evolyutsion algoritmlarni qo‘llash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining barcha iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga joriy etilishi, zamonaviy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasida «…iqtisodiyot tarmoqlarida sun’iy intellekt, kriptografiya, mashinali o‘qitish imkoniyatlarini o‘rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish...», «...infratuzilmalarning axborot xavfsizligini va hujjatlarning himoyasini ta’minlash...», «... davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun axborotni himoya qilish ....»[1] hamda Respublikamizda kriptologiya sohasida ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi Qarorda «…

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2020-yil 5-oktyabr PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmoni.

sohadagi ilmiy-tadqiqotlar ko‘lami va amaliy ahamiyatini oshirish...»[2] hamda zamonaviy kriptotahlil usullarini yaratish bo‘yicha vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda jumladan, axborot himoyasida muhim o‘rin tutuvchi simmetrik kalitli shifrlash algoritmlarini mashinaviy o‘qitish va genetik algoritmlar asosida takomillashtirish hamda zamonaviy kriptotahlillarga baholash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Prezidentimizning 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora tadbirlari to‘g‘risida», 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son «Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mashinali o‘qitish usullari va genetik algoritmlarni, simmetrik kalitli shifrlash algoritmlarining nochiziqli komponentlarini tasniflash va shakllantirish masalalari bo‘yicha N.Kopal, R.Rivest, L.Lerman, A.Benamira, M.Perusheska, Y.Alsariera, A.Petrov, H.Kim, X.Yin, W.Zhang, A.Zahid, A.Ko‘kcham, S.Omran, Y.Wang, va boshqa olimlar tomonidan izlanishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda mashinali o‘qitish usullari va genetik algoritmlarni nochiziq ma’lumotlarni tasniflash hamda turli masalalarda optimal yechimlarni qo‘llashning nazariy asoslarini yaratishga va amaliy tadbiqlarini rivojlantirishga T.F.Bekmuratov, M.M.Kamilov, Sh.X.Fozilov, D.T.Muxamediyeva, F.T.Adilova, R.X.Xamdamov, N.A.Ignatyev, N.S.Mamatov, X.A.Primova, S.S.Rajabov va boshqalar o‘zlarining katta hissalarini qo‘shganlar. Shifrlash algoritmlari va ularning kriptografik nochiziqli komponentlarni shakllantirish hamda bardoshligini baholash masalalariga M.Aripov, P.F.Xasanov, S.K.Ganiyev, B.F.Abduraximov, M.M.Karimov, D.Y.Akbarov, G.U.Jurayev, G‘.N.Tuychiyev, D.M.Kuryazov, A.B.Sattarov va boshqalar boshchiligidagi ilmiy jamoalarning ishlari bag‘ishlangan.

Shu bilan bir qatorda mashinali o‘qitish usullari va genetik algoritmlar, simmetrik kalitli shifrlash algoritmlarining nochiziqli komponentlarini tasniflash va shakllantirish masalalarida qo‘llashga yetarlicha e’tibor qaratilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FZ-20200929308 “Axborot xavfsizligini ta’minlash tizimlarida foydalanuvchilarni biometrik avtorizatsiyalashning integrallashgan texnologiyalari nazariy asoslarini yaratish” (2021-2023) raqamli fundamental tadqiqotlar loyihasi doirasida bajarilgan.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2024-yil 15-avgustdagi PQ-293-sonli “O‘zbekiston Respublikasida kriptologiya sohasida ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

Tadqiqotning maqsadi mashinali o‘qitish va genetik algoritm yordamida simmetrik blokli shifrlarning nochiziqligi yuqori komponentlarini tasniflash va shakllantirish algoritmlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

mashinali o‘qitish usullari va genetik algoritmlarni shifrlash algoritmlari nochiziq komponentlariga qo‘llash bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish;

simmetrik shifrlash algoritmlari nochiziq komponentlari asosida o‘quv va nazorat tanlanmalarni shakllantirish yondashuvni ishlab chiqish;

tayanch vektorlar usuli giperparametrlarini optimallashtirish asosida raund kalitlarini tasniflash aniqligini oshirish yondashuvini shakllantirish;

genetik algoritmni neyron tarmoq arxitekturasida qo‘llash asosida shifrlash kaliti bitlarini tasniflash algoritmini ishlab chiqish;

xosmas qo‘shnilik matritsani genetik algoritm yordamida ajratish va affin funksiyada qo‘llash asosida statik nochiziq komponent qiymatlarini shakllantirish algoritmi ishlab chiqish;

genetik algoritm parametrlarida kriptografik baholashni inobatga olgan holda dinamik nochiziq komponentlar qiymatlarini shakllantirish algoritmi ishlab chiqish.

nochiziqligi yuqori komponentlarini shakllantirish dasturiy majmuasini ishlab chiqish va hisoblash eksperimentlarini o‘tkazish.

Tadqiqotning obyekti simmetrik blokli shifrlash algoritmlarining nochiziq komponentlarini tasniflash va shakllantirish jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmetini mashinali o‘qitish usullarini simmetrik shifrlash algoritmining kalitlarini tasniflashda qo‘llash, nochiziq almashtirish komponenti (S-komponent)ning yuqori bardoshliligini ta’minlovchi statik va dinamik qiymatlarni shakllantirish algoritmi va dasturiy ta’minoti tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ishning nazariy tadqiqotlari matematik tahlil, diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, hisoblash matematikasi, amaliy kriptografiya va kriptotahlil usullariga asoslangan holda amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

simmetrik shifrlash algoritmlari nochiziq komponentlari asosida o‘quv va nazorat tanlanmalarni shakllantirish yondashuvi taklif etilgan;

tayanch vektorlar usuli giperparametrlarini optimallashtirish asosida raund kalitlarini tasniflash aniqligini oshirish yondashuvi taklif etilgan;

genetik algoritmni neyron tarmoq arxitekturasida qo‘llash asosida shifrlash kaliti bitlarini tasniflash algoritmi ishlab chiqilgan;

xosmas qo‘shnilik matritsani genetik algoritm yordamida ajratish va affin funksiyada qo‘llash asosida statik nochiziq komponent qiymatlarini shakllantirish algoritmi ishlab chiqilgan;

genetik algoritm parametrlarida kriptografik baholashni inobatga olgan holda dinamik nochiziq komponentlar qiymatlarini shakllantirish algoritmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nochiziq ma’lumotlarni tasniflash aniqligini oshirish uchun mashinali o‘qitish usullari giperparametrlarni tanlash algoritmi ishlab chiqilgan;

giperparametrlarni tanlash algoritmi simmetrik kalitli blokli shifrlash algoritmi kalit bitlarini tasniflashga qo‘llanilgan;

statik 256 qiymatli, yuqori bardoshli nochiziq almashtirish komponentini hosil qilish algoritmi ishlab chiqilgan;

genetik algoritm parametrlarida kriptografik baholashni inobatga olgan holda dinamik nochiziq komponentlar qiymatlarini hosil qiluvchi algoritm va dasturiy majmuasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi simmetrik shifrlash algoritmlarining nochiziq komponentlariga nisbatan masalaning korrekt qo‘yilishi hamda ishlab chiqilgan algoritmlarni real va tajribaviy natijalarining qiyosiy tahlili bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy ahamiyati simmetrik blokli shifrlash algoritmining kalit bitlarini tasniflashda tayanch vektorlar usuli va neyron tarmoq giperparametrlari zamonaviy optimallashtirish usullari hamda genetik algoritm yordamida tanlanib, tasniflash aniqligi yaxshilangani bilan, nochiziqli S-komponentlarini shakllantirish algoritmlarining natijalarida yuqori bardoshlilikka erishganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan algoritmlar va dasturiy ta’minotni nochiziqli ma’lumotlarni tasniflash masalalarida va zamonaviy simmetrik blokli shifrlarning raund funksiyalarida qo‘llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan nochiziqli komponentlarni shakllantirish va tasniflash algoritmlari hamda dasturiy majmua asosida:

genetik algoritmga asoslangan neyron tarmoq giperparametrlarni optimallashtirish orqali ishlab chiqilgan tasniflash algoritmi Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining Raqamlashtirish va ma’lumotlarni saqlash markazida joriy etilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2024-yil 23-sentabrdagi 07-07/1988-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan algoritm iqtisodiy ko‘rsatgichlar haqidagi ma’lumotlarni bashoratlash 8-10%ga yaxshilangan hamda 11-13% ga vaqtni qisqartirish imkonini bergan;

tadqiqotda genetik algoritmga asoslangan holda shakllantirilgan *S*-komponent AESning ichki nochiziq almashtirish bloki o‘rniga qo‘yish orqali yaratilgan dasturiy majmua, Raqamli texnologiyalar vazirligi Surxondaryo viloyat xududiy sho‘basida katta hajmdagi ma’lumotlarni shifrlash maqsadida joriy etilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2024-yil 23-sentabrdagi 07-07/1988-sonli ma’lumotnomasi). Natijada tasodifiy yuz mingta ochiq matn va kalitlari kiritib, mavjud AES algoritmi bilan solishtirilganda vaqt sarfini 11,5-12,5% gacha ochiq matnlarni shifrlash hamda shifrni dastlabki matnga o‘girishda vaqtni 10,5%-12% gacha qisqartirish imkonini bergan;

tadqiqot ishida shakllantirilgan statik *S* nochiziq komponent simsiz lokal tarmoq xavfsizligini ta’minlash, ma’lumotlarni shifrlash jarayonidagi samaradorligini baholash maqsadida Surxondaryo viloyati Davlat aktivlarini boshqarish boshqarmasi tasischiligidagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” MCHJda axborot almashish jarayoniga

joriy etilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2024-yil 23-sentabrdagi 07-07/1988-sonli ma’lumotnomasi). Natijada statik *S*-komponent umumiy bardoshlilik ko‘rsatgichi bo‘yicha AES shifrlash standartining ichki nochiziq almashtirish blokidan o‘rtacha 12,5% yuqori ko‘rsatgichga erishish imkonini bergan;

tadqiqotda shakllantirilgan *S*-komponent asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua katta hajmdagi ma’lumotlarni himoyalash maqsadida Surxondaryo viloyati IT park Termiz filialida joriy etilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2024-yil 23-sentabrdagi 07-07/1988-sonli ma’lumotnomasi). Natijada majmuaga tasodifiy bir millionta ochiq matn va kalitlarni kiritish orqali hosil qilingan shifr matnlar AES algoritmi bilan taqqoslaganda vaqt sarfi bo‘yicha 13-15% ga qisqartirish imkonini bergan;

genetik algoritmga asoslangan shakllantirilgan statik *S*-komponent Xitoy davlatining SM4 shifrlash algoritmining *S*-komponenti o‘rniga qo‘yish orqali Xitoy davlatining Inner Mongolia Wangxin Information Security Service Co., Ltd tashkilotiga joriy etilgan (Inner Mongolia Wangxin Information Security Service Co. Ltd tashkilotining 2024-yil 10-apreldagi WXSEC20240410005 raqamli ma’lumotnomasi) Natijada SM4 shifrlash algoritmi bardoshligi o‘rtacha 13-13,5% yaxshilanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Mazkur tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan, 9 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, 5 tasi xorijiy jurnallarda (4 ta maqola Scopus bazasiga indekslangan) va 4 tasi respublika jurnallarida chop etilgan hamda 3 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amalda joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Nochiziqligi yuqori algoritmlar komponentlarni shakllantirish va tasniflash muammolari tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida ma’lumotlarni intellektual tahlil qilish usullari va algoritmlari hamda simmetrik blokli shifrlash algoritmlarinining zamonaviy holati tahlil qilingan. Tasniflash masalasiga simmetrik kalitli algoritmning shifrlash va raund kalitlari qaralgan holda, ularni tasniflash muammolari aniqlangan. Blokli shifrlash algoritmlarida nochiziq *S*-

komponentlarini shakllantirish muammolari o‘rganilib, genetik algoritm yordamida yangi natija va algoritmlar ishlab chiqish bayon etilgan.

1.1. ma’lumotlarni intellektual tahlil qilish usullari va algoritmlariga bag‘ishlangan bo‘lib, tadqiqot uchun tayanch vektorlar usuli (SVM) va **s**un’iy **n**eyron **t**armoq (SNT) usullari tanlangan holda, ularning giperparametrlarini tanlash muammolari o‘rganilgan. Mazkur usullarning binar tasniflash masalalarida samarali natijalarga erishishi, shu bilan birga giperparametrlarini tanlash, yechim uchun muhim ahamiyatga ega jarayonligi keltirilgan.

1.2. paragrafda komponentlari nochiziq bo‘lishi talab etiluvchi algoritmlar va ularning tahlili bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Mazkur paragrafda zamonaviy blokli shifrlash algoritmlarining turlari ularning ma’lumotlarni himoyalashdagi o‘rni, ichki tuzilishi va nochiziq komponentlarining sharhi keltirilgan.

1.3 paragrafda nochiziq almashtirish komponentlarni baholash mezonlari tahlili qilingan. Kriptografik bardoshli *S*-komponentlarni shakllantirishning asosiy mezonlar sifatida nochiziqlik, differensial yaqinlashish ehtimolligi, qat’iy lavin samaradorlik, algebraik immuniteti, o‘zgarmas va qarama-qarshi o‘zgarmas qiymatlari tanlanib, mazkur mezonlarga baholash zarurati hamda ularning tavsiyaviy qiymatlari keltirilgan.

1.4. paragrafda nochiziq komponentlarni tasniflash va shakllantirish muammolari tahlil qilingan bo‘lib, simmetrik blokli shifrlarda mashinali o‘qitish algoritmlarining integratsiyasi, kriptografik xavfsizligi va samaradorligini oshirish yo‘llarni, shu masalalarga bag‘ishlangan tadqiqotlar haqida bayon etadi. Blokli shifrlash algoritmlarida bardoshli S-komponentni shakllantirish murakkab vazifa bo‘lib, genetik algoritmlar yordamida uni shakllantirish kriptografiyada yangi yondashuvlarni taqdim etmoqda. Bu usul komponentlarning nochiziqlik va boshqa kriptografik talablarga mosligini optimallashtirish imkonini beradi.

1.5 paragrafda dissertatsiya tadqiqoti maqsadiga erishish uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalar shakllantirilgan. Nochiziq komponentlar sifatida, simmetrik blokli shifrlash algoritmlarining kalit bitlari va nochiziq *S*-komponenti tanlab olindi, bunda tadqiqot muammolari quyidagicha qo‘yildi:

Tasniflash masalasi uchun ochiq matnlar to‘plami $\mathcal{P}=\{P_1,P_2,\ldots,P_i\}$, bu yerda har bir $P_i\in\{0,1\}^m$. Kalit bitlar to‘plami $\mathcal{K}=\{K_1,K_2,\ldots,K_i\}$, bu yerda har bir $K_i\in\{0,1\}^n$. $\mathcal{C}=\{C_1,C_2,\ldots,C_i\}$, bu yerda har bir $C_i\in\{0,1\}^m$. m – ochiq va shifr matn bitlari uzunligi, n – kalit bitlari uzunligi. Shifrlash funksiyasi $E:\mathcal{K}\times\mathcal{P}\to\mathcal{C}$ – bu yerda $E(K_i,P_i)=C_i$ bo‘lib K_i kaliti va P_i ochiq matn uchun C_i shifr matnni hosil qiladi. Berilgan (P_i,C_i) juftliklari asosida, shifrlashda foydalanilgan kalit K_i ni tasniflash uchun mashinali o‘qitish modelini ishlab chiqish kerak bo‘lsin. Shakllantirish lozim bo‘lgan nochiziq *S*-komponent simmetrik shifrlash algoritmlarining muhim qismi hisoblanib, nochiziqlik, qat’iy lavin samaradorlik ko‘rsatgichi, differensial yaqinlashish ehtimoli kichik, o‘zgarmas va qarama-qarshi o‘zgarmas qiymatlari soni ideal holatda 0 ga teng bo‘lishi maqsadga muvofiq. Mazkur mezonlarga mos keluvchi *S*-komponentlarni katta elementlar to‘plamidan turli baholash mezonlari asosida shakllantirish zarurati mavjudligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Nochiziqligi yuqori komponentlarni tasniflash algoritmlari”** deb nomlangan ikkinchi bobi soddalashtirilgan simmetrik kalitli algoritmlarning raund va shifrlash kaliti bitlarini tasniflash usullari, shakllantirilgan nochiziq ma’lumotlarni o‘qitishga tayyorlash, SVM va SNT giperparametrlarni tanlash algoritmlarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan.

2.1 paragrafda klassik shifrlash algoritmlari Affin, Vijener va Playferdan hosil qilingan shifr matnlar nochiziq ma’lumotlar sifatida olinib, ularning turini aniqlash uchun SNT dan foydalanilgan, tajriba davomida modelning o‘quv aniqligi 95% dan, nazorat aniqligi esa 79 %dan ortiq bo‘lishiga erishilgan. Ushbu natijalar mashinali o‘qitishni kriptotahlil muammolariga qo‘llash orqali yangi usul va natijalarni olish, zamonaviy blokli shifrlarni kriptotahlilida foydalanish mumkinligini ko‘rsatdi.

2.2 paragrafda simmetrik shifrlash algoritmi sifatida soddalashtirilgan S-AES algoritmi tanlab olinib, tasniflash masalasi uning shifrlash kaliti bitlarini aniqlashga qaratidi. Mashinali o‘qitish usullarining kirishi sifatida ochiq matn va shifr matn juftliklari qaraldi, chiqishi uchun kalit bitlari olinib tajribalar SNT usulida o‘tkazildi. Tadqiqotda S-AESning kalit bitlarini tasniflashda mashinali o‘qitish usuli bilan birga uning giperparametrlarini optimal tanlash muammosi mavjudligi aniqlandi.



1-rasm. O‘quv tanlanmalarni shakllantirishda tanlab olingan S-AES qismlari

2.3 paragrafda S-AESning kalit bitlarini tasniflash uchun, uning shifrlash raundlari va kalitlarni taqsimlash qismlari alohida 2 ta qismga bo‘lib olindi. 1-qism S-AES ning kalitni taqsimlash algoritmiga kiruvchi shifrlash kalit k bitlari va undan hosil bo‘luchi KP, KF, KS raund kalitlari o‘quv tanlanma sifatida tanlandi. 2-qism o‘quv tanlanmasi k shifrlash kalitni tasodifiy kiritib undan hosil bo‘lgan raund kalitlari bitlari KP, KF, KS lar tanlab olingan 2 ta p_1 = 1000100010001000 va p_2 = 1100110011001100 ochiq matnlar bilan c_1 va c_2 shifr matnlar hosil qilindi.

S-AES raund funksiyasida qo‘llanilgan S-komponent S_b={9,4,A,B,D,1,8,5,6,2,0,3,C,E,F,7} va c_1 va c_2 shifrlaring binar qiymatlari bilan birgalikda o‘quv tanlanmasi hosil qilindi. O‘quv tanlanma SVMga kiruvchi sifatida va raund kalitlarining har bir biti tasniflanuvchi sifatida qaralgan. Optuna dasturi yordamida $M=1000$ turli sinovlar orqali θ-giperparametrlari uchun optimal qiymatlar tanlandi. SVMning θ-giperparametrlar va ularning qidiruv maydoni C=[10^{-3}, 10^{3}], Y_t - yadro funksiyalari, chiziqli, ko‘phadli, radial asosli va sigmoidal yadro funksiyalari va ularga tegishli parametrlarni sonli oraliqlarda olindi. Natijada maksimal tasniflash aniqligi 88,46%, minimal tasniflash aniqligi 61,54% bo‘lib, o‘rtacha tasniflash aniqligi 70,67% ni tashkil etdi. Shifrlash kaliti bitlari uchun o‘quv tanlanmalarini

shakllantirishda 16 bitdan iborat *N=2048* ta tasodifiy *k* kalitlar tanlandi. *k* kalitlarni S-AESning kalitlarni taqsimlash qismiga kiritilib, raund funksiyalari subkalitlari *KP=16 bit, KF=16 bit, KS=16bit* lardan iborat 48 bitni tashkil qiluvchi to‘plam hosil qilindi. Raund kalitlari orqali shifrlash *k* ni tasniflash uchun S_K ko‘rinishidagi o‘quv tanlanma shakllandi. Hosil qilingan S_K o‘quv tanlanma SNT uchun x_n kiruvchi tasodifiy shifrlash kaliti *k* orqali generatsiya qilingan *kp*, *kf* va *ks* subkalit bitlaridir. Chiqish y_n sifatida har bir ustunidagi shifrlash *k* kalit bitini tasniflash uchun alohida o‘quv tanlanmalar yaratildi.

$$S_K = \begin{bmatrix} kp_{1,1} & kp_{1,2} & \cdots & kp_{1,n} & kf_{1,1} & kf_{1,2} & \cdots & kf_{1,n} & ks_{1,1} & ks_{1,2} & \cdots & ks_{1,n} & k_{1,1} & k_{1,2} & \cdots & k_{1,n} \\ kp_{2,1} & kp_{2,2} & \cdots & kp_{2,n} & kf_{2,1} & kf_{2,2} & \cdots & kf_{2,n} & ks_{2,1} & ks_{2,2} & \cdots & ks_{2,n} & k_{2,1} & k_{2,2} & \cdots & k_{2,n} \\ \vdots & \vdots & \ddots & \vdots & \vdots & \vdots & \ddots & \vdots & \vdots & \vdots & \ddots & \vdots & \vdots & \vdots & \ddots & \vdots \\ kp_{N,1} & kp_{N,2} & \cdots & kp_{N,n} & kf_{N,1} & kf_{N,2} & \cdots & kf_{N,n} & ks_{N,1} & ks_{N,2} & \cdots & ks_{N,n} & k_{N,1} & k_{N,2} & \cdots & k_{N,n} \end{bmatrix}$$

SNTning giperparametrlarini tanlash va arxitekturasini qurishning **A1** genetik algoritmi quyidagi qadamlardan iborat:

Kiruvchi parametrlar va ularning qiymatlari: O‘quv tanlanma, neyron tarmoqning giperparametrlari va ularning sonli oraliqlari.

Chiquvchi natija: Berilgan o‘quv tanlanmaning tasniflanishi kerak bo‘lgan chiqish sinfiga eng yuqori nazorat tanlanmada aniqlangan giperparametrlar.

1-qadam. Barcha mumkin bo‘lgan giperparametrlar to‘plamini *H* bilan belgilaymiz. Har bir giperparametr $h_i \in H$ oldindan belgilangan giperparametr oraliq qiymatlarini qabul qiladi. Mazkur masala uchun quyidagicha belgilandi:
O‘rganish tezligi (*LR*): $LR \in \{0.001, 0.01, 0.1\}$, batch hajmi (*BS*): $BS \in \{16, 32, 64\}$, dropout darajasi (*DR*): $DR \in \{0.1, 0.2, 0.4, 0.5\}$, yo‘qotish funksiyasi (*LF*): $LF \in \{\text{MSE}\}$, qatlamlar soni (*LN*): $LN \in \{5, 6, 7, 8, 9\}$, aktivatsiya funksiyalari to‘plami *(AF)*: $AF \in \{"relu", "elu", "selu", "prelu", "gelu"\}$.

2-qadam. Boshlang‘ich P_0 populyatsiya *n* ta individlar bilan yaratiladi. $P_0 = \{I_1, I_2, \ldots, I_n\}$, bu yerda har bir I_n neyron tarmog‘ining giperparametrlar va qatlamlar sozlanmasidir.

$$I_n = \{LR_n, BS_n, DR_n, LF_n, LS_n\},\ LS_n = \{(NE_{n1}, AF_{n1}), \ldots, (NE_{nL}, AF_{nL})\},$$

bunda *LS* – qatlamlar soni, *NE* – neyron, *AF* – aktivatsiya funksiyasi, *L* – neyron tarmog‘i qatlamining umumiy sonini ifodalaydi. Bu parametrlar qiymati 1-qadamda berilgan giperparametrlarga tegishli to‘plamdan tasodifiy tanlanadi.

3-qadam. Har bir *I* - individning mosligi giperparametrlar asosida yaratilgan neyron tarmog‘i arxitekturasi nazorat to‘plamidagi aniqlikni *MSE* funksiyasi bilan aniqlash orqali yaroqliligi baholanadi. Bu ifoda quyidagicha ifodalaniladi:

$$f(I_n) = AC_{naz}(M_d(I_n)),$$

bu yerda $M_d(I_n)$, I_n - individining giperparametrlari asosida yaratilgan neyron tarmog‘ini bildiradi, va AC_{naz} nazorat to‘plamidagi aniqligini ifodalaydi.

4-qadam. Krossover operatori ikki I_p ota va I_q onadan krossover operatsiyasi orqali yangi avlod I_c yaratiladi. Bu operatsiya har bir giperparametr uchun quyidagicha amalga oshiriladi:

$$I_c[g]=\begin{cases} I_p[g] & \text{agar } t_s < 0.5 \\ I_q[g] & \text{aks holda} \end{cases},$$

bu yerda t_s – 0 dan 1 gacha bo‘lgan oraliqdan tasodifiy qiymat. g – gen bo‘lib, har bir giperparametrni ifodalovchi o‘zgaruvchidir.

5-qadam. Mutatsiya har bir tanlangan gen g uchun, mutatsiya $I_n[g]=g'$ning 1-qadamdagi oraliqlardan olingan tasodifiy qiymat. Tanlangan giperparametrga yangi qiymatni qo‘llagan holda faqat tanlangan giperparametr yangilanadi. Misol: I_n - quyidagi giperparametrlarga ega bo‘lsin:

$$I_n=\{LR=0.01, BS=32, DR=0.2, LF="mse", NL=5, AF="relu"\}$$

Agar mutatsiyada tasodifiy tangangan giperparametr *LR* (o‘rganish tezligi) bo‘lib va yangi tasodifiy tanlangan qiymat 0.001 ga teng bo‘lsa, yangilangan $I_n^{'}$ individ quyidagicha bo‘ladi:

$$I_n^{'}=\{LR=0.001, BS=32, DR=0.2, LF="mse", NL=5, AF="relu"\}$$

Genetik algoritm *G=5* avlod davomida ishlaydi. Har avlodda *P=5* ta populyatsiya tanlanadi va keyingi avlodga genetik operatsiyalar qo‘llaniladi. Jarayon *P=0* dan boshlanib, avlodlarni rivojlantirish orqali eng yaxshi nazorat aniqligiga mos keluvchi giperparametrlar aniqlanib algoritm yakunalandi.

S-AESning 16-bitli shifrlash kalitlarini tasniflash uchun A1 algoritmiga asoslangan neyron tarmoq ADAM optimizatori bilan 10,000 davrda o‘qitildi. Sigmoid funksiyasi orqali qiymatlar 0 va 1 oralig‘iga keltirildi. Keras kutubxonasida Callback, ModelCheckpoint va EarlyStopping yordamida o‘quv jarayoni optimallashtirilib, 97,5% o‘quv aniqligi va 96,2% nazorat aniqligiga erishildi.

Dissertatsiyaning **“Nochiziqligi yuqori almashtirish komponentlarini shakllantirishning gibrid algoritmlari”** deb nomlangan uchinchi bobi statik va dinamik *S* komponentlarni shakllantirishga bag‘ishlanib, trigonometrik hamda Affin almashtirishlar bilan genetik algoritmni gibrid qo‘llash algoritmi ishlab chiqilgan.

3.1 paragrafda Genetik algoritm parametrlarida trigonometrik funksiyadan foydalanish orqali dinamik nochiziq almashtirish qiymatlarini shakllantirish algoritmi keltirilgan bo‘lib, trigonometrik funksiya sifatida quyidagi tanlangan:

$$f(z)=\sin((A+B)\cdot x\cdot z+C),$$

bu yerda, $0<x<1,\ 0\le z\le(2^n-1), B\in z$ va $A,C=\{1,3,...,2^n-1\}$.

Mazkur funksiyadagi *A, B, C* va *X* o‘zgaruvchilarini belgilangan qiymatlar oraliqlaridan tasodifiy tanlash orqali dinamik S-komponentlar generatsiya qilingan. Algoritmda *X*, *A* va *C* parametrlarini optimallashtirish orqali bardoshligi yuqori, **t**rigonometrik **f**unksiya **a**sosida shakllantirilgan (TFOSH) S_1 komponent berilgan.

3.2 paragrafda Affin almashtirishga genetik algoritmlarni qo‘llash orqali nochiziqligi yuqori statik komponentlarni shakllantirish algoritmi ishlab chiqilgan. Mazkur ishda $S\{8\times8\}$ komponentilarni hosil qilish AES shifrlash algoritmidagi usuldan foydalanilgan holda amalga oshirilgan. AES nochiziq almashtirish komponenti $GF(2^8)$ Galua maydonida keltirilmaydigan ko‘phad $m(x)=x^8+x^4+x^3+x+1$ orqali quyidagi funksiya bilan hisoblanadi.

$$S(x)=A\cdot x^{-1}+b,$$

bu yerda, A – 8×8 o‘lchamdagi binar matritsa va b – 8 o‘lchamdagi binar o‘zgarmas vektor. Tadqiqotda A matritsa chekli graf uchlari o‘rtasidagi munosabatni ifodalovchi qo‘shnilik matritsasi sifatida qaralgan. $n\times n$ o‘lchamdagi bu matritsa V va U to‘plamlaridan hosil qilinib, determinanti 0 ga teng bo‘lmagan xosmas matritsa sifatida belgilangan. Genetik algoritm yordamida xosmas qo‘shnilik matritsasini shakllantiruvchi **A2** algoritmi quyidagi qadamlardan iborat:

Kiruvchi parametrlar va ularning qiymatlari. n matritsa o‘lchami. m boshlang‘ich populyatsiya uchun generatsiya qilinish kerak bo‘lgan matritsalar soni. μ - mutatsiya ehtimoli, 0 dan 1 oraliqdagi haqiqiy son. Matritsa elementlarining o‘zgarish ehtimoli, φ-fitness funksiyada matritsaning determinantini aniqlash uchun kichik musbat haqiqiy son. t_{max} – maksimal avlodlar soni. p juftlar o‘rtasidagi krassover markazi, 0 dan n orasidagi butun son.

1-qadam. *Populyatsiyani tanlash*. m qo‘shni matritsadan iborat P_0 boshlang‘ich populyatsiya yaratiladi, bu yerda har bir A_i matritsa $n\times n$ o‘lchamli matritsadir. Matritsadagi har bir A_{ij} elementi 0 yoki 1 dan iborat.

2-qadam. *Fitness funksiya:* Fitness $f(A_i)$funksiya A_i qo‘shnilik matritsasining yaroqligini xos yoki xosmas matritsaga tekshirish orqali baholanadi.

$$f\left(A_i\right)=\begin{cases}\varphi, & agar\ \det\left(A_i\right)=0\\ \left|\det\left(A_i\right)\right|, & aks\,holda\end{cases},$$

bu yerda φ kichik musbat doimiy son.

3-qadam. A_i ning omon qolishi, ruletka g‘ildiragi usulidan foydalanilgan holda, fitness bahosi asosida aniqlanib ehtimoli uning yaroqliligiga mutanosibdir:

$$P_t\left(A_i\right)=f\left(A_i\right)\Big/\sum_{k=1}^{m}f\left(A_k\right)$$

4-qadam. Krassover uchun p tasodifiy nuqta tanlab olinib ikkita yangi A_{n1} va A_{n2} matritsalar asosiy (ota-ona) matritsalarning elementlarini aralashtirish orqali yaratiladi:

$$A_{n1}=\left[A_{p1}[1:p],\ A_{p2}[p+1:n]\right],\quad A_{n2}=\left[A_{p2}[1:p],\ A_{p1}[p+1:n]\right],$$

bu yerda A_{p1} va A_{p2} asosiy (ota-ona) matritsalari.

5-qadam. A_{ij} matritsaning har bir elementi μ ehtimol bilan mutatsiyalanadi.

$$A'_{ij}=\begin{cases}1-A_{ij}, & \mu\ ehtimollik\ bilan\\ A_{ij}, & aks\,holda\end{cases}$$

6-qadam. Yangi matritsa fitness funksiyasi bilan baholanadi. Agar xosmas matritsa topilmasa yoki avlodlar t_{max} ga yetgach algoritm yakunlanadi. Aks holda A'_{ij} yangi avlod matritsasini qayta shakllantirish uchun 2-qadamga o‘tiladi.

7-qadam. Xosmas qo‘shnilik matritsasi shartini qanoatlantirsa *nxn* matritsa qiymat sifatida olinib algoritm yakunlanadi.

Mazkur algoritmni Affin almashtirish generatsiyasiga qo‘llab statik S komponentlar shakllantirildi. Ularlarni nochiziqlik *N(f)*, umumiy nochiziqlik *N(S)*, algebraik immunitetlik *AI(S)*, qat’iy lavin samaradorlik *SAC*, Chiziqli yaqinlashish ehtimoli *LP*, differentsial bir xilligi *DU*, qo‘zg‘almas *FP* va qarama-qarshi qo‘zg‘almas *OFP* qiymatlar bo‘yicha baholash amalga oshirildi.

3.3 paragrafda genetik algoritm va affin almashtirish parametrlaridan gibrid usulda foydalanish orqali nochiziqligi yuqori dinamik *S*-komponentlarni shakllantiruvchi usul va algoritmlariga bag‘ishlanib, tajribaviy natijalar asosida quyidagi teoremalar aniqlandi:

1-teorema. Rinjdael algoritmida *m(x)* keltirilmaydigan ko‘phad bilan, *A* matritsa va Affin almashtirish $S(x) = A \cdot x^{-1} + b$ orqali hisoblangan S-komponenentning umumiy *N(S)* nochiziqligi 112 ni qanoatlantirsa *A* matritsani soat mili yoki teskasi bo‘yicha 90, 180, 270 gradusga burganda hosil qilingan *S*-komponentlarning umumiy nochiziqligi ham 112 ni qanoatlantiradi.

2-teorema. Affin almashtirishda *b* vektorning qiymati 0,0,0,0,0,0,0,0 yoki 1,1,1,1,1,1,1,1 ga teng bo‘lsa, $S(x) = A \cdot x^{-1} + b$ bilan hisoblangan nochiziq *S{8×8}* komponentning kamida 1 ta *FP* yoki qarama qarshi *OFP* nuqtasi mavjud bo‘ladi.

Affin almashtirishning keltirilgan va ko‘rib chiqilgan funksiyalar xossalari asosida quyidagi funksiya shakllantirildi.

$$S(x) = A_{2,r_2}^{d_2} \cdot \left(A_{1,r_1}^{d_1} \cdot x + b_1 \right)^{-1} + b_2$$

Shakllantirilgan Affin funksiyasi, *S(x)* chiqishini, *x* kirish qiymatini va A_1, A_2 lar *8×8* o‘lchamli binar matritsalarni o‘z ichiga oladi. Bularning har biri ma’lum bir d_1, d_2 qiymatlariga (1 yoki -1) va r_1, r_2 burilish burchaklariga (0, 90, 180, 270 daraja) ega. Shuningdek, har bir matritsa uchun b_1 va b_2 vektorlari mavjud. Bu parametrlar orqali 256 ta elementdan iborat dinamik *S(x)* komponentlarni shakllantiriladi, har bir *S(x)* nochiziqligi $N(S)_{min}$=112 ga teng. Buning uchun A_1 (1) va A_2 (2)matritsalari va *m(x)* o‘zgarmas, d_1, r_1 va d_2, r_2 esa o‘zgaruvchi parametrlar sifatida qaraldi. Jami kombinatsiyalar soni har bir d_1 va d_2 uchun 2 ta, har bir r_1 va r_2 uchun 4 ta, va b_1, b_2 uchun 254 tani tashkil etadi. Mazkur holat uchun $N(S)_{min}$=112ga teng bo‘lgan dinamik *S* nochiziqli komponentlarning jami kombinatsiyasi quyidagicha.

$$S_u = d_1 \times d_2 \times r_1 \times r_2 \times b_1 \times b_2 = 2 \times 2 \times 4 \times 4 \times 254 \times 254 = 4129024$$

S{8×8}-dinamik nochiziq almashtirish qiymatlarini hisoblash genetik algoritmdan foydalanib funksiyaning A_1 va A_2 parametrlari uchun (1) va (2) da ko‘rsatilgan matritsalar va keltirilmaydigan ko‘phad $m(x) = x^8 + x^7 + x^6 + x^3 + x^2 + x + 1$ olindi.

$$A_1 = \begin{bmatrix} 1 & 0 & 1 & 1 & 1 & 1 & 0 & 1 \\ 1 & 1 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 1 \\ 1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 1 & 0 & 1 & 1 & 0 \\ 1 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 \\ 1 & 0 & 0 & 1 & 1 & 0 & 1 & 1 \\ 1 & 0 & 0 & 1 & 0 & 1 & 0 & 0 \end{bmatrix} \quad (1) \qquad A_2 = \begin{bmatrix} 1 & 1 & 0 & 1 & 0 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 0 & 1 & 1 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 1 & 1 & 0 & 1 & 0 \\ 1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 0 & 1 \\ 1 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 \\ 1 & 1 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 1 & 1 & 1 & 1 & 1 \\ 0 & 1 & 1 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 \end{bmatrix} \quad (2)$$

Tanlangan qiymatlar **A**ffin **f**unksiya **o**rqali **sh**akllantirilgan (AFOSH) S_1 nochiziq komponenti shakllantirildi. Yuqorida tanlab olingan parametrlar bilan dinamik AFOSH komponentlarni shakllantirish uchun d_1, d_2, r_1 , r_2, b_1, *va* b_2 ning bazi

qiymatlari orqali AFOSH $S_2\{8\times8\}$, $S_3\{8\times8\}$, $S_4\{8\times8\}$, $S_5\{8\times8\}$ komponentlar hisoblandi.

Dissertatsiyaning **“Nochiziqli komponentlarni tasniflash va shakllantirish algoritmlari hamda dasturiy majmuasining natijalari tahlili”** deb nomlangan to‘rtinchi bobi nochiziq komponentlarni tasniflash va shakllantirish uchun takomillashtirilgan holda taklif etilgan algoritmlar, yaratilgan dasturiy majmua asosida nochiziq komponentlarni shakllantirish haqida bayon etadi. Ishlab chiqilgan ushbu algoritmlarning tajribaviy tadqiqotlar natijalari mavjud algoritmlar asosida olingan natijalar bilan qiyosiy tahlili va amaliy masalalar yechimlariga bag‘ishlanadi.

